
Korrupsiyaning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki qanday bo‘lishi kerak?



Jamoatchilik ishonchi, turli institutlarning samaradorligi, iqtisodiy rivojlanish va davlat xavfsizligini ta’minlashda korrupsiyaning oldini olish muhim o‘rin tutadi. Bunda fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyati juda zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy siyosat va strategiyani, ish rejalarini, monitoring va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq etishda hamda amalga oshirish jarayonining borishi to‘g‘risida hisobot berishda fuqarolik jamiyati muhim rol o‘ynash imkoniga ega[1].

Ko‘pgina mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi milliy strategiyani ishlab chiqish uchun texnik ekspertlar qo‘mitasi tashkil etilgan. Hukumatlar manfaatdor tomonlarning keng ishtirokini ta’minlash uchun bunday strategiyalarni ishlab chiqishda fuqarolik jamiyatini tobora ko‘proq jalb qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish choralari avvalo jamoatchilik oldida hisobot berish va oshkoralikdir. Hukumat

[1] BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 5-moddasi.

faoliyatida shaffoflikni ta’minlash – korrupsiyaning oldini olish kalitidir.

Hukumatlar o‘z faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalariga hisobot berishi kerak.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 13-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar korrupsiya to‘g‘risida ma’lumot izlash, olish, nashr etish va tarqatish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Shu nuqtayi nazardan, hukumatlar aholining barcha ma’lumotlardan o‘z vaqtida foydalanishini ta’minlash chorasini ko‘rishi talab etiladi. Mamlakatlar shaffoflikni oshirish uchun turli choralarni ko‘radilar.

Ba’zi davlatlar fuqarolarning hukumat to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish huquqini kafolatlaydigan va foydalanishini tartibga soluvchi qonunlarni (masalan, axborot erkinligi to‘g‘risidagi) va normativ hujjatlarni qabul qiladi. Ba’zi mamlakatlar esa hukumat portallaridan yoki ma’lumotni taqdim etish va tarqatishning boshqa elektron vositalaridan foydalanadi. Bunga ayrim vakolatli organlarning manfaatdor tomonlar va ommaviy axborot vositalariga xaridlar, shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini kuzatib borish imkoniyatini beradigan rasmiy saytlaridan foydalanishni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, jamoatchilik ijtimoiy voqealar to‘g‘risidagi malumotlar, shu jumladan, huquqiy axborotni asosan OAVdan oladi. Bu esa OAVning nafaqat voqelikni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, balki jamoatchilik ongida siyosiy voqelikni shakllantiruvchi vosita ekanidan dalolat. A.Solovyov takidlaganidek, hozirgi kunda aynan mediakratiya jamiyatda hokimiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va mazmunini belgilab bermoqda[2].

Fikrimizcha, OAV, ayniqsa, internet ijtimoiy fikrni zarur yo‘nalishda shakllantiruvchi qudratli g‘oyaviy targ‘ibot quroli sifatida maydonga chiqmoqda. Kishilarning ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati ko‘p jihatdan ushbu vositalarning voqelikni qanday talqin qilishi va uni auditoriyaga qanday maqsadni ko‘zlab yetkazishiga bog‘liq.

Huquqshunos olim H.Odilqoriyevning fikricha, OAVning ko‘pchiligi hamkorlikda ishlay boshlaganida ta’siri keskin ortadi. Biron mafkuraviy konsepsiya biron OAVda uzoq vaqt surunkali targ‘ib qilinganida ham uning ta’sir darajasi ortishini ko‘rishimiz mumkin[3].

Bugungi axborot asrida jamiyatning korrupsiyaga qarshi huquqiy ongini oshirishda OAVning imkoniyatidan to‘liq foydalanilmayapti. OAVda berilayotgan ma’lumotlar ko‘proq shov-shuvli muammolarga bag‘ishlangan. Hozirgi murakkab huquqiy makonda fuqarolar yurish-turishining asosiy qismini belgilab beradigan fuqarolik, mehnat, oila, bank, soliq, boj qonunchiligiga oid axborotlarga, shu sohada yuzaga kelayotgan huquqiy muammolarga kam ahamiyat berilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilishda muhim jihatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- axborotdan foydalanish imkonini berish bilan bog‘liq qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish;
- mustaqil ravishda so‘rov yuborish orqali qonunchilikning samaradorligi va ijro etilishini tahlil qilish;
- insonlarga huquqlari to‘g‘risida ma’lumot berish, yordam berish yoki qonunlarni qanday qilib qulay qilishni o‘rgatish;
- axborotdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlar muhokamasini tashkil etish orqali qonun hujjatlarini tayyorlash.

Korrupsiyaning oldini olishda ta’lim ham muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari maktablar va universitetlarda tegishli dasturlarni amalga oshirish hamda shu kabi dasturlar uchun o‘qituvchilarni tayyorlash orqali korrupsiyaga qarshi ta’limni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari kundalik hayotda yaxlitlik va axloqiy qadriyatlarga asoslangan o‘quv muhitini yaratishda ham ishtirok etishi lozim. Bu yoshlarga korrupsiyasiz muhitda yashash qadrini anglashga yordam beradi va kelajakda bunday sharoitlarni izlash hamda yaratishga undaydi. Bu esa ota-onalar, o‘qituvchilar, ma’muriy xodimlar va talabalar kabi manfaatdor tomonlarni maktab/universitet ma’muriyatini nazorat qilishga undashi mumkin.

Shaffoflikning oshishi fuqarolik jamiyati institutlariga haqiqiy xarajatlarni kuzatish va ularni

[2] Соловьев А.И. Политический дискурс медиакратий: Проблемы информациионой эпохи //Политические исследования.- 2004. –№2.-С. 124.
[3] Одилқориев Ҳ.Т. Ғойибназаров Ш.Ғ. Сиёсий маданият. Тошкент: Ўзбекистон ИИВ академияси, 2004. –177-б.

dasturlarda bayon etilgan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Nima bo‘lganda ham talabalar uchun korrupsiyaga qarshi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish zarur. Bunda fuqarolik jamiyati institutlari o‘zlarini qiziqtirgan sohaga tegishli yordam, shu jumladan, texnik yordam ko‘rsatish uchun yangi o‘quv materiallarini ishlab chiqishi yoki amalda qo‘llashi mumkin. Ta’lim dasturlari faqat korrupsiyaga qarshi mavzular bilan cheklanib qolmasdan umumiy qonun ustuvorligini shakllantirish, axloqiy qadriyatlar va ularga rioya qilish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, qonun loyihalari bo‘yicha jamoatchilik muhokamasini kuchaytirish korrupsiyaga qarshi samarali kurashishni ta’minlaydi. Korrupsiyaga qarshi ekspertizaning ochiq, foydalanish mumkin bo‘lgan metodikasi juda muhim hisoblanadi.

Ekspertiza uchun mas’ul bo‘lgan tashkilot fuqarolik jamiyati institutlari bilan ikki jihatdan hamkorlik qilishi kerak:

fuqarolik jamiyati institutlari qonun loyihalaridan xabardor bo‘lishi;

fuqarolik jamiyati institutlari qonun bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Korrupsiyaga qarshi huquqiy va me’yoriy baza ikkala jihatni ham aks ettirishi lozim.

Fuqarolar qonun loyihalari yoki qabul qilingan qonunlarni o‘z xohishiga ko‘ra qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Biroq bu jarayonda ularning rolini belgilash maqsadga muvofiq. Bu esa qonun chiqaruvchilarni fuqarolarning tavsiyalarini ko‘rib chiqish va fikr-mulohazalarini bildirishga majbur qiladi.

Fuqarolik jamiyati har qanday rasmiy korrupsiyaga qarshi mexanizmning bir qismi bo‘lishi kerak. Masalan, korrupsiyaga qarshi kurashish organining maslahat kengashi yoki parlament komissiyasi ko‘rinishida.

Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati ishtirokining afzalliklarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

• fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari tarkibiga kirmaydi va shu sababli bemalol boshqa pozitsiyani egallashi mumkin;

• fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki faqat hukumatning sa’y-harakatlarini to‘ldirishi, ammo ularning o‘rnini bosmasligi kerak. Yaxshi qonunchilik davlatning asosiy mas’uliyati hisoblanadi va davlat hokimiyati organlari odatda baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq normativ-huquqiy hujjat loyihasi majburiy huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkaziladi. Bunda ekspert sifatida loyihani tayyorlashda bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va shaxslar jalb qilinadi. Ekspertiza o‘tkazishga olimlar va mutaxassislar, fuqarolik jamiyati institutlari jalb qilinishi mumkin.

Ekspertlar loyihaga baho berishda mustaqildir va ekspertiza o‘tkazish topshirig‘ini bergan organning nuqtayi nazari bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ekspertlarning loyiha bo‘yicha xulosalari tavsiya xususiyatiga ega bo‘lib, ularni ishlab chiquvchi yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organ ko‘rib chiqishi lozim. Xulosaning inobatga olinmagan bandlari yuzasidan tushuntirish berilgan holda ma’lumotnoma tayyorlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish imkoniyatini yaratuvchi omillarni aniqlash, hujjatlar loyihalari qabul qilinishining korrupsiya holatlari uchun imkoniyat yaratuvchi oqibatlarini umumiy baholash, qo‘llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilish maqsadida o‘tkaziladi. Ekspertiza natijasiga ko‘ra korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi va choralar ko‘riladi[4].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratish uchun unga davlat jinoyat sifatida qarashi kerak.

Yuqoridagi tavsiyalarni hisobga olgan holda har bir davlat organi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun mazkur kengashga nodavlat notijorat tashkilotlarning faollarini kiritish, OAV vakillarini hamkorlikka chorlash orqali sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Mohinur MUHAMMADIYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi doktoranti

[4] O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni. № O‘RQ-682 20.04.2021-y. Milliy qonunchilik bazasi, 20.04.2021-y., № 03/21/682/0354).